

INFORMATIKA DARSLARIDA TA'LIMNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI

Nurova Madinabonu Salim qizi
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman
2- son kasb- hunar maktabi
Informatika fani o`qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda kompyuter amaliy dasturlaridan biri Power Point dasturida yaratilgan ta'larning interfaol usullari keltiriladi. Ta'larning bu interfaol usullari e'tiborni, kuzatishni shakllantirishga, xotirani, fikrlashni, tashabbusni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat o'rnatishni ta'minlaydi. O'quvchilarni ushbu fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, chigil yozdi usuli, zakovat usuli, mo'jizalar maydoni usuli, zinama-zina usuli, zukko haydovchi usuli.

Kirish: Hozirgi vaqtida o'qitishga yondashuv hayot va faoliyatning rivojlanish dinamikasining o'ziga xos xususiyatlari, turli xil ta'lim texnologiyalarining o'ziga xosligi va shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayoniga yangilik, innovatsiyalarni kiritishga qaratilishi kerak.

Bugungi kunda o'quvchining mustaqil o'zlashtirishi, bilim olishi va idrok etishi uchun sharoit yaratmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishish, o'qitish muammolarini hal etish mumkin emas. Zamonaviy o'qituvchining vazifasi maktab o'quvchilariga bilim berish emas, balki motivatsiya yaratish va o'zini o'zi tarbiyalash uchun ko'nigmalar to'plamini shakllantirishdir. Albatta, o'qituvchi yordamisiz o'quvchiga hech qanday mahorat kelmaydi. Bu to'quvchining shaxsiy shakllanishiga va uning rivojlanishiga olib keladi. Ta'larning interfaol usullari o'qituvchiga o'quvchilarni dars bilan qiziqirishga, ularni faol ishtirok etishga, natijalarga erishishga va jamoaviy ishlashga undashga yordam beradi.

Boshqa tomondan, ular ma'lum bir didaktik vazifani hal qilishadi: yangi materialni o'rganish yoki o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash, ta'lim ko'nigmalarini va ko'nigmalarini shakllantirish.

Asosiy qism:

“CHIGIL YOZDI” USULI

Dars boshlanishida bu usul darsga o'quvchilarni ruhiy tayyorlash va dars yarmida o'quvchilar diqqatini mashg'ulotning keyingi bosqichiga moslash uchun qo'llaniladi. Bu usulda men kompyuterning asosiy, ichki va qo'shimcha qurilmalarini

vazifalarini o'quvchiga she'riy tarzda bayon etaman. O'quvchidan esa bu qurilmaning

**Qurilmalar ichida
Eng kattasi bo'laman
Barcha ichki qurilma
Mujassamlashgan menda
Qani aytchi bolajon
Men qaysi qurilmaman?**



qanday qurilma ekanligini topish talab etiladi.

**Men ichki qurilmaman
Vazifam mening doim
Qurilmalar ishini
Boshqarishdan iborat
Topingchi bilag'onlar
Men qaysi qurilmaman?**



TIZIMLI BLOK

PROTESSOR



**Matnli yo grafikli
Ma'lumot tasvirlayman.
Xoh u bo'lsin eng qimmat
Yoki bo'lsin eng oddiy.
Qani topchi bilimdon
Men qaysi qurilmaman?**



**Vazifam mening doim
Axborotni kiritish
Foydalanuvchi kishini
Osonlashtirish ishini.
Qani topchi topag'on
Men qaysi qurilmaman?**



SICHQONCHA

MONITOR

“ZAKOVAT” USULI

Zakovat usuli asosan darsni o'tilgan mavzuni takrorlash hamda darsni mustahkamlash qismlarida o'tkaziladi. Bu usul o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tezkorlik bilan javob berishga undaydi. O'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu usul o'quvchilarning o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlashda ham yordam beradi. Zamonaviy o'qituvchi kompyuterning amaliy dasturlarida ishlashni mukammal bilishi lozim. Zakovat usuli “Zakovat” intellektual o'yiniga o'xshab ketadi. Bu usul Power Point dasturida tayyorlanadi. Baraban o'quvchi tomonidan bosiladi.

Strelka qaysi savolga borib tuxtasa o'sha savol ochiladi



O'quvchi tomonidan savolga javob berilgandan keyin, savolning javobi ochiladi. Shu tariqa 12 savol ochiladi. Bu usulda 12 o'quvchi 1 balldan olish imkoniyatiga ega



bo'ladi.

МО'JIZALAR MAYDONI USULI

Mo'jizalar maydoni usuli o'quvchini tez idrok qilish va xozirjavoblikka chorlaydigan usuldir. Yangi mavzuni o'tishda o'quvchilar bilimini sinashda bu usul qiziqarliligi, tafakkur va xotirani o'stirishi bilan ajralib turadi.

Bu usulni men Power Point dasturida ishlab chiqdim. Bu usulni tuzishda men har xil animatsion (harakatlanuvchi) effektlardan foydalahganman. Bu usulda dastlab javob so'z kataklarda yashiringan holda chiqadi, keyin savol chiqadi. O'quvchini hozirjavoblikka chorlovchi so'zlar, ya'ni vaqtga qara, qani top, tezroq top kabi so'zlar har xil harakatlar va rasmlar bilan birga chiqadi. Agar o'quvchi so'zni topa olmasa,

javob so'zning birinchi harfi ochiladi. So'z topilgandan keyin o'quvchi qarsak va musiqa bilan olqishlanadi.

Shu tariqa savollar o'quvchilarga ketma-ket beriladi.

ZINAMA-ZINA USULI

Zinama-zina usuli o'quvchilar diqqatini bir joyga to'plab, ularni ongli tafakkurlashga chorlaydi. Bu interfaol usulni deyarli barcha o'quv fanlarida samarali qo'llash mumkin.



ZINAMA-ZINA USULINI TUZISH TARTIBI

Bizga ma'lumki mahoratli o'qituvchi kompyuter dasturlarida mukammal ishlay olishi shart. Bu usul kompyuterning amaliy dasturlaridan bo'lgan Power Point dasturida tuzilgan. "Zinama-zina" usuli o'quvchilarni ruhiy dam olishini ta'minlaydi. O'quvchilarga navbati bilan 5 ta savol beriladi. Savollarning javoblari zinalarda yashiringan bo'ladi. O'quvchilar tomonidan to'g'ri javob aytilgunga qadar zina ochilmaydi. 5 ta zinadagi 5 ta savolga to'g'ri va to'liq javob berilsa, qushcha inidan uchib chiqadi va sayrab beradi.

ZUKKO HAYDOVCHI USULI

Bu interfaol usulni amaliyotda qo'llashdan maqsad, dars jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini tarkib toptirish va ularning bilim olishga qiziqtirish hisoblanadi. Bu usuldan barcha aniq va maxsus fan o'qituvchilari foydalansa bo'ladi. Dars jarayonida bu usuldan foydalanilganda kollej o'quvchilarining tanlagan kasblariga ham bog'lab ketilsa bo'ladi. Bu usulni men quyidagi tartib bo'yicha yaratdim:

Jadvalga o'tilgan va yangi mavzu bo'yicha 20 ta termin ketma -ket shaklda joylashtirilgan. Masalan, informatika fanining asosiy elementi nima (axborot), bu

elementni qayta ishlovchi vosita (kompyuter), kim tomonidan kiritiladi (foydaluvchi), ikkalasi o'rtasidagi bog'lanish (interfeys) va h... Sohaga bog'lab mashina joylashtirilgan. Mashinadagi jihozni manzilga yetkazish uchun o'quvchidan jadvaldagi 20 ta terminni yo'l shaklida chizilib topilishi talab etiladi.O'quvchining to'g'ri bajarganligini tekshirish uchun Power Point dasturida so'zlarning ustiga yo'l shaklida chiziq qo'yilib chiqiladi va animatsiya (harakat) bilan manzilga yetkaziladi. Avtomobilga ham harakatlari animatsiya va avtomobil tovushi qo'yilib, chiziqlardan iborat yo'ldan avtomobil harakatlanib manzilga yetib boradi. Ushbu ekranda chizilgan yo'lni o'quvchilar o'zlar qog'ozga chizgan yo'l bilan solishtiradilar va qanday bajarganliklarini bilib oladilar.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o'qitish g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'qitishning mutlaqo yangi, hali o'rganilmagan texnologik variantlarini ochadi. Kompyuterni o'qitish texnologiyalari - bu o'quvchiga axborotni tayyorlash va uzatish jarayonlari bo'lib, uning vositasi kompyuterdir. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan, ayniqsa, tasvirlangan o'quv qo'llanmalaridan foydalinish samaradorligi, ularning didaktik imkoniyatlarini amalga oshirish, shubhasiz, eng muhim talab hisoblanadi. Nafaqat og'zaki ma'lumotni to'ldiruvchi, balki ma'lumot tashuvchisi vazifasini bajaradigan vizualizatsiya shakllaridan foydalinish o'quvchilarning aqliy faolligini oshirishga yordam beradi.

Kompyuter texnologiyalari o'qituvchilarga an'anaviy ta'limga xos bo'lgan o'qitish faoliyati turlaridan voz kechish imkoniyatini ochib, unga intellektual mehnat shakllaridan foydalinish imkoniyatini beradi. Yangi texnologiyalardan foydalinish o'quvchilarga nafaqat fanni yaxshiroq o'rganish, balki olingan ko'nikmalarni ham o'zlashtirish imkonini beradi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.J.Boltayev va boshqalar "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari" Cho'lpon 2015-yil.
2. Informatsionnye i kommunikatsionnye texnologii v distansionnom obuchenii: Spetsialnyy uchebnyy kurs / per. s angl. Maykl G.Mur, U.Makintosh, L.Blek i dr. M.: Izdat.dom «Obuchenie-Servis», 2006.
3. Polipova T.A. Vnedrenie kompyuternykh texnologiy v prepodavanie inostrannogo yazyka // Inostrannye yazyki v shkole. – 2009. – №10. – S.11 – 16.